

**AKSIYADORLARINING YILLIK UMUMIY YIG'ILISHI O'TKAZILISHI HAQIDA
B I L D I R I S H N O M A**

**CHEII "BEKTEMIR-SPIRT EKSPERIMENTAL ZAVODI" AJ
AKSIYADORLARI DIQQATIGA!**

CHEII "BEKTEMIR-SPIRT EKSPERIMENTAL ZAVODI" AJ Kuzatuv kengashining 2020 yil 3 iyundagi qaroriga asosan aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi 2020 yil 26 iyun kuni soat 11-00 da o'tkazilishi haqida ma'lum qiladi.

KUN TARTIBI:

1. Jamiyat Kuzatuv kengashining 2019 yilda amalga oshirgan ishlari bo'yicha hisobotini tasdiqlash.
2. Jamiyatning 2019 yil yakunlari bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan jamiyat Taftish komissiyasining xulosasini eshitish.
3. Jamiyatning 2019 yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, yillik biznes-rejasining bajarilishi bo'yicha hisoboti hamda jamiyatning rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash.
4. Jamiyat xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan 2019 yil uchun moliyaviy hisobotni hamda xalqaro audit standartlariga muvofiq 2019 yil uchun o'tkazilgan audit tekshirish natijalarini ko'rib chiqish.
5. Jamiyatning 2019 yil yakunlari bo'yicha olingan sof foydasini taqsimlash.
6. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash.
7. Jamiyat Taftish komissiya a'zolarini saylash.
8. Jamiyatning 2015 yil 19 iyundagi jamiyat Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va boshqaruv organi a'zolari mehnatini taqdirlash va rag'batlantirish to'g'risidagi nizomiga o'zgartirish kiritish.
9. Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi 2017 yil 30 oktyabrdagi jamiyat Kuzatuv kengashi, Boshqaruv va Taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq miqdorlari belgilash haqidagi qaroriga o'zgartirish kiritish.

Joylashgan yeri (pochta manzili): O'zbekiston Respublikasi, 100182, Toshkent shahri, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko'chasi, 91-uy.

Elektron pochta manzili: bekspirt@mail.ru.

Umumiy yig'ilish o'tkazish joyi: O'zbekiston Respublikasi, 100182, Toshkent shahri, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko'chasi, 91-uy.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish sana, vaqti va joyi: 26.06.2020 y., 10:00 dan 11:00 gacha, O'zbekiston Respublikasi, 100182, Toshkent shahri, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko'chasi, 91-uy.

Boshqa ma'lumotlar:

Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida qatnashish uchun aksiyadorlar reestri 2020 yil 22 iyun' holatiga ko'ra shakllantiriladi. Aksiyadorlarning yillik navbatdagi Umumiy yig'ilishiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat, vakillari esa ishonchnoma (jismoniy shaxslar uchun - notarial tartibda tasdiqlangan) bilan kelishlari shart.

Aksiyadorlarning yillik navbatdagi Umumiy yig'ilishi bo'yicha tayyorlangan hujjatlar bilan tanishish uchun quyidagi manzil bo'yicha murojaat qilishingiz mumkin: O'zbekiston Respublikasi, 100182, Toshkent shahri, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko'chasi, 91-uy. Telefon: (371) 295-01-41.